



OLIV TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINI KASBIY PROFESSIONALLIGINI OSHIRISHDA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING ISTOBOLLARI

G.A.Ixtiyarova

TDTU huzuridagi Pedagog kadrlarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish tarmoq markazi direktori,
kimyo fanlari doktori,
professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16351981>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-Iyul 2025 yil
Ma'qullandi: 11-Iyul 2025 yil
Nashr qilindi: 23-Iyul 2025 yil

KEYWORDS

Fan-texnika, demokratik,
globallashuv, professional,
malaka, pedagog, qayta
tayyorlov, qaror, tizim, kadrlar,
muassasa, ma'rifiy, ma'naviy,
portfolio, axborot, elektron,
texnologiya.

ABSTRACT

Ta'lim tizimidagi islohotlar va dunyo rivojlanishi bilan hamnafaslikda, qadamma-qadam yurish uchun, avvalombor pedagog-kadrlarni malakasini oshirish va ularning mahoratlarini doimiy ravishda rivojlantirib borish talabini kuchaytirish lozim. Ushbu talablarni inobatga olgan holda ta'lim muassasasiga qo'yilgan rejalarni amalga oshirishda vazifalar, islohotlar izchilligini ta'minlash zarur.

Har bir mamlakatning demokratik, huquqiy, mehnat bozoriga asoslangan davlatga o'tishi sharoitida ta'lim sifatini muttasil oshirib borish hamda uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish muhim rol o'ynaydi. Chunki globallashuv va fan texnikaning jadal rivojlanishi mutaxassislarining zamon talablari va kasbiy-innovatsiyalarga nisbatan tezkor moslashishini talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim turlaridan biri – kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalariga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy professionalligini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratildi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashtirilgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etildi hamda rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida malaka oshirish tizimida tub islohotlar amalga oshirildi.

Respublikamiz hukumati tomonidan oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga bo'lgan e'tibor, shuningdek, tizimni tubdan yangilash va takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi 278-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq Respublikamiz miqyosida oliy ta'lim rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha 5 ta Mintaqaviy hamda 17 Tarmoq markazlari tashkil etildi. Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi ham mazkur qaror asosida tashkil etilib o'z faoliyatini boshladi.

2012-2024 yillar davomida Tarmoq markazini yuqori salohiyatli, bilimdon, mas'uliyatli va tajribali rahbarlar boshqarib keldilar. Jumladan: 2015-2019 yillarda texnika fanlari

nomzodi, dotsent Abdujabbarov Nuriddin Anvarovich, 2019-2024 yillar davomida iqtisodiyot fanlari doktori Qurolov Qobuljon Qulmanovich, 2024 yil may oyidan boshlab kimyo fanlari doktori, professor Ixtiyarova Gulnora Akmalovna Tarmoq markazini boshqarib kelmoqda.

Bugungi kunda Tarmoq markazi rahbariyati qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim jarayonlarini sifat samaradorligini oshirish, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, shuningdek, xorijiy tajribalar asosida o'quv-uslubiy ta'minotni ta'minlash borasida samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda.


2024 yil sentabr oyidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 11 iyuldagi 415-sonli qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini uzluksiz malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda.

Malaka oshirish tizimida oliy ta'lim pedagoglarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda o'ziga xos o'rin tutuvchi pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, uning kursga qabul qilinishidan boshlab kursni tugatgunga qadar bo'lgan jarayon tizimini aniqlab olish, ta'lim jarayonini samarali hamda to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Ushbu shart - sharoitlardan muhim ahamiyatga ega bo'lgani, moddiy-texnik bazani yaratilishi bilan bog'liq bo'lib, Tarmoq markazida bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Tarmoq markazi TDTUning asosiy binosining 7 qavatida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 420 kv. m ni tashkil etadi.

Shundan auditoriyalar soni 5 ta maydoni 240 kv.m.ni tashkil etadi. Tarmoq markazida mutaxassislik va ta'lim sohasiga oid 250 dan ortiq adabiyotlarni o'zida jamlagan kichik axborot resurs markazi tashkil etilgan. 16 kishilik o'quv zali ham mavjud bo'lib, 16 ta Internet tarmog'iga ulangan kompyuter va 1 ta printer hamda 1 ta nusxa ko'chirish apparati tinglovchilar foydalanishi uchun ajratilgan. Kompyuter xotirasiga Tarmoq markazi yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan O'UMLar joylashtirilgan.





Markazda umumiy kompyuterlar soni 70 ta, shulardan o'quv xonalarida 44 ta, axborot resurs markazida 16 ta va ma'muriy xonalarda 10 ta kompyuterlar joylashtirilgan. Barcha kompyuterlar Internet tarmog'iga ulangan.



Kompyuterlarning 67 tasi Core-i3 va Core-i5 rusumidagi monobloklar va 3 tasi personal komterlar hisoblanadi. 1 ta kompter bilan jihozlangan auditoriya bo'lib, barcha kompterlar internet tarmog'iga ulangan. Markazda 5 ta o'quv xonasida 5 ta proyektor va kompter jamlanmasi mavjud. Shuningdek, 3 ta interaktiv doska, 5 ta magnit doska, 12 ta printer, 6 ta Skanerlar mavjud.

Barcha o'quv xonali IP kameralari mavjud. 100 mg/sek tezlikdagi optik tolali aloqa tarmog'iga ulangan bo'lib, tinglovchilar foydalanishlari uchun 2 ta WI-FI zonalar mavjud.

Onlayn konferensiyalar o'tkazishga mo'ljallangan "SZ Tenveo texnologiya"si jamlanmasi o'rnatilgan. Video va onlayn ma'ruzalarni videoyozuvlarini amalga oshirish uchun videokamera jihozlari mavjud.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yo'nalishlari bo'yicha huquqiy-normativ va o'quv-metodik ta'minotning ta'minlanishi o'quv jarayonlarini sifat-samaradorligini ta'minlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu borada Tarmoq markazida 36 ta ta'lim yo'nalishlari bo'yicha barcha o'quv-normativ hujjatlar ishlab chiqilgan.



Xususan, Tarmoq markazi yo'nalishlaridan kelib chiqib 4 ta ta'lim sohasi bo'yicha malaka talablari ishlab chiqilgan, bular: "Hayotiy faoliyat xavfsizligi", "Transport", "Muhandislik ishi" va "Ishlab chiqarish texnologiyalari" ta'lim sohalari. Shuningdek, 36 ta yo'nalishining o'quv reja va dasturlari va 142 ta ishchi dasturlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu dasturlar asosida 134 ta o'quv uslubiy majmualar ishlab chiqilgan. Ushbu o'quv resurslar elektron shaklda maxsus dasturlar asosida elektron tizimga kiritilgan bo'lib, malaka oshirish jarayonlarida tinglovchilar ushbu o'quv-resurslarni elektron shaklda yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim jarayonlariga jalb etilgan pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarmoq markazida o'quv mashg'ulotlar o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatli o'qituvchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarishning malakali mutaxassislari jalb etilgan.

Tarmoq markazida professor o'qituvchilar asosan soatbaylik asosida faoliyat yuritadilar.

Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilishda ularning mutaxassisliklari, ilmiy salohiyati, xorijiy tillarni hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarning bilish darajasiga e'tibor qaratilgan holda ularni suhbat asosida (soatbaylik asosida) ishga qabul qilinadi. Tarmoq markaziga ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar BIMM tomonidan tashkil etiladigan trenerlik kurslariga malaka oshirish uchun yuboriladi.

Bugungi kunda Tarmoq markazida 58 nafar professor-o'qituvchilar soatbaylik asosida faoliyat olib boradilar. 58 nafar pedagoglarning 15 nafari fan doktori va professorlar, 39

nafari fan nomzodlari va dotsentlar, 4 nafari katta o'qituvchilardan iborat. Ilmiy salohiyat 93%ni tashkil etadi.

Shuningdek, ushbu professor-o'qituvchilarning 25 nafari xorijiy mamlakatlarda malaka oshirgan, stajirovka o'tagan pedagoglar hisoblanadi.

Tarmoq markazi professor-o'qituvchilari tomonidan 2022-2023 yllarning birinchi yarim yilligida qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim jarayonlariga mos keladigan chop ettirilgan ilmiy ishlar soni jami 433 tani tashkil etadi, shundan, 7 ta monografiya, 30 ta o'quv qo'llanma, 9 ta uslubiy qo'llanma, 3 ta uslubiy ko'rsatma, 224 ta ma'ruza matnlari, OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallardagi ilmiy maqolalar 60 ta, xorijiy ilmiy jurnallardagi ilmiy maqolalar 98 ta, ixtiro va patentlar 2 tani tashkil etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida asosiy e'tibor ilm, fan va ishlab chiqarining o'zaro integratsiyasi asosida tashkil etishga qaratilgan bo'lib, Tarmoq markazi ham o'quv mashg'ulotlarni Respublikamizning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarida olib borilishini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan. Tarmoq markazida 2022 yillarda 29 ta ishlab chiqarish korxonalari, 6 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 3 ta o'quv markazlari, 2 ta OTMLari va 29 ta oliy ta'lim muassasalarining profil kafedralari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan.

2024 yilning birinchi yarim yilligida o'quv rejada belgilangan ko'chma mashg'ulotlar 20 ta hamkorlik shartnomalari imzolangan korxonaga va tashkilotlarda, OTMLarining zamonaviy jihozlangan laboratoriyalarida olib borildi.



Zamonaviy jamiyat hayotiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va elektron ta'lim tizimlarini rivojlantirish uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari kabi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalari ta'lim jarayonlarini tashkil etish, ta'limga yondashuvlarni sifatli qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida yangi ilmiy va innovatsion g'oyalarni shakllantirishga olib keladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalarida raqamlashtirilgan tizimni joriy etilishi ta'lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi.

O'quv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, tinglovchilarni faollashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish qulayliklarini yaratadi.



Shuningdek, ta'lim va boshqaruvda inson omili ishtirokini kamayishi, ochiq, shaffof, sub'ektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan muhitni shakllantirilishini ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalarni faoliyatga tatbiq etish bo'yicha Tarmoq markazida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu holat inson omili ishtirokini kamaytirish, shuningdek, har qanday koorupsion holatlarni oldini olinishini ta'minlaydi.

Tarmoq markazida tinglovchilar va markaz xodimlarining barmoq izlarini skanerlash asosida davomatni avtomatik tarzda aniqlashga mo'ljallangan FingerPrint texnologiyasi o'rnatilgan bo'lib, u yerdagi ma'lumotlar markaz serverda qayd etib boriladi.

Himoya jarayonlarining xolislik va shaffofligini ta'minlash maqsadida tinglovchilarning belgilangan mezonlar bo'yicha baholanishi uchun maxsus Rateme.uz dasturiy ta'minot yaratilgan. Mazkur dasturiy ta'minot orqali tinglovchilarning bitiruv ishi himoyasi jarayonida erishgan natijalari belgilangan mezonlar asosida elektron shaklda baholanadi, tizimda umumlashtirilib, erishilgan natija o'sha vaqtning o'zida avtomatik tarzda qayd etib boriladi.

Ushbu dasturdan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

RATEME TINGLOVCHILARNI BAHOLASH TIZIMI

RATEME DASTURINING IMKONIYATLARI

- Masofadan turib baholash
- Jonli suhbat paytida baholash
- Malumotlar xavfsiz bulutda saqlanadi
- Xurfiyona o'zgarishsiz
- Guruhlarni oylar kesmida saralash
- Imtihon bitish
- Natija ballari vaqtini ko'rish
- Sertifikatni yuklab olish
- Tinglovchilarni Excel jadvaldan import qilish

DASTURGA JOYLASHTIRILADIGAN MA'LUMOTLAR

- Attestatsiyaga kirtiladigan yo'nalishlar nomi, tinglovchilar ro'yhati, nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari
- Tinglovchilar tomonidan bajariladigan bitiruv ishlarini va taqdimot materiallari
- Komissiya a'zolari haqida ma'lumot (FIO, lavozimi)
- Bitiruv ishi himoyasi bo'yicha baholash mezozi

TIZIMDAN FOYDALANISH TARTIBI

- Komissiya a'zolarining telefon raqamlari tizimga kiritiladi
- Komissiya a'zosi tizimga kiritilgan telefon raqamiga sms orqali kirish kodi yuboriladi
- Kodni terish orqali komissiya a'zosi tizimga bog'lanadi

TINGLOVCHILAR HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI JOYLASHTIRISH

- Bitiruv malakaviy ishi va taqdimotni onlayn ko'rish imkoniyati
- Barcha tinglovchilarni belgilangan mezonlar bo'yicha baholash
- Natijalar qaydnomasini avtomatik shakllantirish va yuklab olish
- Inson omilini kamaytirib, jarayonni avtomatlashtiradi

TIZIMDAN FOYDALANISH QULAYLIKLARI

TIZIMDAN FOYDALANISH TARTIBI

TINGLOVCHILARNI BAHOLASH

TINGLOVCHILAR NATIJASI

YO'NALISHLARNI OYLAR KESMIDA SARALASH

TINGLOVCHILAR HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI JOYLASHTIRISH

BARCHA QURILMALARDA ISHLAYDI

SOFTEX

Tarmoq markazida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi va tuzilgan shartnomalar asosida xorijiy mutaxassislarni o'quv jarayonlariga jalb etilishi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan.


2021 yil 16 sentyabrda Bellarus milliy texnika universiteti bilan hamkorlik faoliyatini yo'ga qo'yish bo'yicha memorandum imzolangan bo'lib, unda universitet professor-o'qituvchilarini Tarmoq markazi o'quv jarayonlariga jalb etish bo'yicha, shuningdek, markaz o'qituvchi-xodimlarini Bellarus milliy texnika universitetida malaka oshirish va stajirovkalarini yo'lga qo'yish bo'yicha o'zaro kelishuvlar belgilangan.

Hamkorlik shartnomasi talablari asosida 2023 yilning 1 yarim yilligida 4 nafar Bellarus milliy universiteti professor o'qituvchilari tomonidan markaz tinglovchilariga o'quv mashg'ulotlar tashkil etilgan.

2022 yil 4 mart kuni Tarmoq markazi Hindiston Shrinagar milliy texnologiya instituti bilan faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha memorandum imzolandi. Pedagog kadrlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish, hamkorlikda qo'shma loyihalar ishlab chiqish, shuningdek pedagog kadrlarni o'quv jarayonlariga jalb etish masalalari belgilab olingan.

2023 yilning mart oyida Shirinagar milliy texnologiya instituti o'qituvchilari tomonidan 18 soatga mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlar tashkil etilgan.

Tarmoq markazida kadr iste'molchilari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari buyurtmasi asosida qayta ixtisoslashuv bo'yicha 1100 soatga mo'ljallangan qayta tayyorlash kurslari tashkil etilib kelinmoqda. 2022-2023 yilda "Transport logistikasi", "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti", "Elektronika va asbobsozlik" yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash kurslari tashkil etilgan



2024 yil 9 avgust kuni Tarmoq markazida “Qozog’iston-O’zbekiston yangi gorizontlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o’tkazildi. Anjumanda professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirishda ilg’or xorijiy tajribalardan foydalanishning roli va ahamiyatlari yuzasidan tajriba almashildi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari jamlanmasi chop ettirildi. Ushbu konferensiya materiallari asosida o’quv reja va dasturlarga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish bo’yicha takliflar kiritildi. Shuningdek, o’zaro hamkorlikni yo’lga qo’yish maqsadida ikki tomonlama memorandum imzolandi.





Shuningdek, ishlab chiqarish mutaxassislarini ham soha bo'yicha malakasini oshirish qisqa muddatli kurslari tashkil etilib, 2024 yilda harbiy- qism ishchi-xodimlaridan 67 nafarini malakalari oshirildi.

Bugungi kunga kelib nodavlat oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta ixtisoslashuvga ehtiyojlari borligi sababli, nodavlat oliy ta'lim muassasalaridanham buyurtmalar tushmoqda.

Shu bilan birga Respublikamizdagi ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari bilan ham hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, ushbu korxonasi va tashkilotning buyurtmasi asosida ishchi-xodimlarni qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

Tarmoq markazida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish bilan bir qatorda, professional ta'lim muassasalarining maxsus fan o'qituvchilari va ta'lim ustalarini malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Bugungi kunda 10 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari Tarmoq markazida 144 soat hajmidagi o'quv dasturlar asosida o'zlarining kasbiy professionalliklarini oshirib kelmoqdalar.



Tarmoq markazida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishi va tinglovchilarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq vazifalar asosida "Ma'naviy ma'rifiy ishlar rejasini" ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu reja asosida turli bayram sanalariga bag'ishlangan tadbirlar, Respublikaning taniqli insonlari bilan uchrashuvlar, Toshkent shahrining qadriyatlarini bo'ylab sayohatlar tashkil etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 25



yanvar kuni «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qarori imzolandi. Qaror «xalqimizning samimiy tilaklari va xohish-irodasidan kelib chiqib, ona Vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz ravnaqi yo'lidagi buyuk tarixiy xizmatlarini inobatga olib, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti, O'zbekiston Qahramoni Islom Abdug'anievich Karimovning yorqin xotirasini abadiylashtirish maqsadida» qabul qilingan. Ushbu qarorga muvofiq 2024 yil 2-sentabr sanasi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovni xotiralar kuni deb belgilab qo'yildi.

Shu munosabat bilan ushbu sanada Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malaka oshirish tarmoq markazi hodimlari Islom Karimovni yod etish uchun yigildilar.

Yigilishda birinchi prezidentimizning yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, aholi turmushini yaxshilash borasidagi xizmatlari yodga olindi va Toshkent davlat texnika universiteti binosidagi Islom Karimov haykali ostiga gullar qo'yildi.

2024 yil 27 sentabrda 1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar kuni" munosabati bilan 27 sentabrda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi tomonidan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirni Markazi direktori Ixtiyarova Gulnora Akmalovna ochib berdi. Tadbirga Toshkent davlat texnika universitetining bir qator professor-o'qituvchilari, hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, "Do'stlik" ordeni sohibi Bobur Bobomurod tashrif buyurdi. Bobur Bobomurod yangi ijodlaridan Ustozlarga bag'ishangan she'rlar bilan davramni qiziqtirib bordilar. Ustozlar, tadbirga ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar, markaz hodimlari va tinglovchilarni bayram bilan tabriklab, iliq fikrlar bildirdilar.

Ustozlarni tabriklab Neft va gaz sanoati texnologiyasi yo'nalishi tinglovchilari sahna ko'rinishi va she'rlar aytib yanada tadbirni qiziqarli o'tishida jonbozlik ko'rsatishdi. Bobur Bobomurod shoirga tarmoq markazi tomonidan "Boburmirzo ensiklopediyasi" va bir qancha esdalik sovg'alari hamda tashakkurnoma berildi, o'qituvchilarga xam tashakkurnoma va bayram munosabati bilan professional ta'lim o'qituvchilariga pul mukofotlari topshirildi.



Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy professionalligini oshirishda uzluksiz qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining o'rne beqiyosdir.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning rivojiga xissa qo'shadigan yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarishda oliy ta'lim muassasalari asosiy ahamiyat kasb etar ekan, bu tizimda faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarning kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.



Avvalambor yurtimizda keng miqyosda olib borilayotgan xalqimiz tomonidan sevib nishonlanadigan tadbirlardan bittasi bizning tarmoq markazida joriy yilning 19 mart kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti huzuridagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish" tarmoq markazida "**Assalom Navro'z**" mavzusida ma'naviy- madaniy tadbir tashkil etildi. Tadbirni tarmoq markazi direktori k.f.d..professor G.A.Ixtiyarova kirish so'zlari bilan ochib berdilar va barchani Sizlarni tabiat uyg'onishi, yangilanish va ezgulik fasli bo'lmish Navro'z bayrami hamda Mohi Ramazon bilan chin yurakdan muborakbod etaman! Bugungi kunda bizning ta'lim markazimiz ilm-fan va kasbiy mahorat sari intilayotgan fidoyi o'qituvchilar hamda bilimga chanqoq tinglovchilar bilan yanada rivojlanib bormoqda. Sizlarning harakatlaringiz, mehnatsevarligingiz va ilm olishga bo'lgan intilishingiz biz uchun bebaho boylikdir. Har biringizning sa'y-harakatlaringiz tufayli biz yanada yuksak marralarni zabt etamiz. Yangi kun va yangi yil sizlarga sog'lik-salomatlik, baxt va muvaffaqiyat olib kelsin! Hayotingiz doimo Navro'z kabi yorug', ezgulik va shodlikka to'la bo'lsin! deya iliq tabrik so'zlari bilan ochib berdilar. Tadbirda Mexanika va mashinasozlik fakulteti dekani J.Safayev hamda Energetika fakulteti dekani O.Toxirov

o'zlarining "Mehnika muhandisligi" va "Energetika muhandisligi" yo'nalishidagi tinglovchilarini tabrikladilar. Ushbu uyg'onish fasli bo'lmish bahor oyini tarannum etuvchi, xalqimizning asrlar davomida nishonlab keladigan bayrami "Navro'zi olam" Barchamizga muborak bo'lsin deb tabrik so'zlarini yo'lladilar.



Tadbir ko'tarinki ruxda va yuqori saviyada tashkil etildi. Tadbir davomida "Mehnika muhandisligi", "Energetika muhandisligi" yo'nalishidagi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilari turli xil millat va elatlarimizning urf-odatlarini aks etgan sahna ko'rinishlari, kuy va she'rlari bilan faol ishtirok etishdi.



Tinglovchilar faol ishtirok etib, ular tomonidan ijro etilgan Buxorocha qo'shiq, Surxon vohasining milliy raqsi, Xorazm, Qoraqalpoq va Andijon raqslari va chiqishlari tadbir ko'rkiga o'zgacha shukuh baxsh etdi hamda bayramona kayfiyat ulashdi. Bayram ishtirokchilari o'zlarining har bir chiqishlarida o'zbek xalqining milliylikni o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi milliy liboslarda chiqishlar qilishdi hamda ko'tarinki kayfiyatni bayram ishtirokchilariga yetkazishga harakat qilishdi. Tadbir ishtirokchilariga ma'naviy-ruhiy kayfiyat hamda ko'tarinki ruh taqdim etdilar. O'ziga xos milliy qo'shiqlari bilan bayram dasturini bayramona kayfiyat bilan ta'minlashdi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasida o'tayotgan bayram tadbirlari, xalqimizni azaldan saqlanib kelayotgan urf-odatlarini va qadriyatlariga bo'lgan hurmatni tarbiyalash va ularni saqlab qolishga urinish biz kadrlarni oliy vazifamiz xisoblanadi.

Tashrif buyurgan doirachilar, sozanda va qo'shiqchi san'atkorlarning chiqishlari esa albatta bayram tadbirini o'zgacha o'tkazishda ko'mak berdi. Tadbirni Ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri t.f.f.d. dotsent N.Akbarova kirib kelayotgan "Navro'z" ayyomi bilan barchani tabriklab Yangi kun va yangi yil sizlarga sog'lik-salomatlik, baxt va muvaffaqiyat olib kelsin! Hayotingiz doimo Navro'z kabi yorug', ezgulik va shodlikka to'la bo'lsin! Kirib kelgan Ro'za ayyom va Hayit ayyomingiz barchaga muborak bo'lsin! deya bayram dasturiga yakun

yasadilar. Shu bilan birga, navro'z bayrami bizga yangi maqsadlar, rejalar va umidlar tug'diradi. Kelajakda qanday rejalarimizni amalga oshirish uchun ilhom olib, bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, tanglik va adolat hissini o'rgatishimiz, barcha do'stlarimiz bilan kelishib ishlashimiz muhim. Yana bir bor, sizlarni Navro'z bayrami bilan samimiy muborakbod etaman. Har kunimiz bayram, har daqiqamiz mehr va muhabbat bilan to'lsin!



Har qanday jamiyat taraqqiyotida ma'naviy meroslar qadri va uni yodga olish, ularni xotiralarini qadrlashdek kechalar bugun yurtimiz bo'ylab keng miqyosda tadbir kechalarini uyushtirishga va ulardan olinayotgan ma'naviy oзуqalar yoshlarni vatanga va ajdodlarimizga bo'lgan ehtiromini yuksaltirish maqsadida "Qodiriyni yod etib" nomli tadbir tarmoq markazi xodimlari va tinglovchilari uchun tashkil etildi. Joriy yilning 17 aprel sanasida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyni hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Qodiriyni yod etib" ma'naviy ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirga O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi, olim, tarjimon pedagog va davlat arbobi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Ustoz Muhammad Ali Ahmedov tashrif buyurdilar.





O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Qodiriyning yod etib" ma'naviy ma'rifiy tadbirni Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori Ixtiyarova Gulnora Akmalovna ochib berdilar.

Abdulla Qodiriy – o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochgan, millat dardi, xalq taqdirini yuragidan o'tkazgan, o'z asarlari orqali uyg'onish, o'zgarish, milliy tiklanish g'oyalarini ilgari surgan betakror ijodkordir. Uning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi asarlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yangi avlodni tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda, Abdulla Qodiriydek siymolarni eslash, ularning hayoti va ijodidan ibrat olish – bu faqatgina o'tmishni yodga olish emas, balki kelajakni munosib bunyod etish sari dadil qadamdir.

Tadbirimiz samarali o'tishini, barchamiz uchun ma'naviy ozuqa, ilmiy tahlil va yangi ilhom manbai bo'lishini tilab, sizlarga muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilaymiz.

O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi, olim, tarjimon pedagog va davlat arbobi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Ustoz Muhammad Ali Ahmedov o'z chiqishlarida O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy hayoti va ijod yo'li yoshlar hayotida o'chmas iz qoldirgani va ularning bosib o'tgan hayoti ilhom manbai ekanligini ta'kidladilar. Ular ijod yo'lida Qodiriy avlodlari bilan bo'lib o'tgan suhbatni bo'lishdilar va albatta ijod yo'llari bilan fikrlari bilan tanishdilar.

Abdulla Qodiriy siymosi Vataniga bo'lgan muhabbati, hayot yo'lidagi chizgilar, hozirgi kunda yoshlar va O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro uchun o'rnak va tadbir davomida tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan ma'naviy ma'rifiy tadbir kayfiyatiga o'zgacha shukuh baxsh etdi. O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi, olim, tarjimon pedagog va davlat arbobi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Ustoz Muhammad Ali Ahmedov yangi ijod namunalaridan o'qib berib, tadbirga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Yurtimizda oilaga bo'lgan munosabat hamda uni saqlash borasida olib borilayotgan islohotlar jamiyatning bir bo'lagi Oila – har bir insonning hayotida muhim o'rin tutadigan muqaddas insoniy tushuncha. Oila, nafaqat biologik aloqa, balki ruhiy va emotsional munosabatlardan iborat bo'lib, insonning qo'llab-quvvatlovi, baxtli damlarini o'tkazishi uchun zarur bo'lgan muhitdir. Oilaning asosi – muhabbat, qarshi olgan hurmat va ishonchdir. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ruhiy barqarorlik, bir-birini tushunish va o'zaro yordam bilan ta'minlash kerak. Oiladagi mehr-muruvvat, farzandlarga to'g'ri tarbiya berish va ularni yuksak axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. 15-may kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida **“Biz bir oila”** nomli tadbir bo'lib o'tdi



Tadbirda “Metrologiya va standartlashtirish” hamda “Neft va gaz ishi” yo'nalishi tinglovchilarining faol ishtiroklari asosida bo'lib o'tdi. Tadbirga “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasini mudiri texnika fanlari doktori, professor Matyakubova Paraxat Mayliyevna tashrif buyurdi.

Albatta tadbirni kirish so'zlari bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori Ixtiyarova Gulnora Akmalovna ochib berdilar. Tadbirda “Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasini mudiri prof. Matyoqubova P.M. ishtirok etdilar va tinglovchilarni iliq so'zlari bilan tabrikladilar.

Oila – bu jamiyatning eng muhim bo'g'ini, tarbiyaning boshlang'ich maktabi. Farzandlarimizning kelajagi, jamiyatning taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligi, avvalo, sog'lom, mehrga boy oilada shakllanadi. Shu bois, oila qadriyatlarini mustahkamlash, har bir insonda o'z oilasiga, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy jamoasiga nisbatan mehr va mas'uliyat tuyg'usini oshirish – muhim vazifalarimizdan biridir.

Albatta davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar o'z navbatida jamiyatimizda o'zbek xalqining uzoq yillardan beri avloddan avlodga o'tayotgan merosini asrash va o'sib kelayotgan avlodga to'lagicha yetkazish oliy maqsadimizdir.

Tinglovchilarning chiqishlari va “Metrologiya biz oilamiz” nomi ostida ibratli spektakl ko'rinishlari tadbir dasturiga o'zgacha kayfiyat bahsh etdi.



Oila mavzusidagi tadbir – bu jamiyatda oilaning rolini, ahamiyatini va kamchiliklarini muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyat. Tadbir davomida oila a’zolarining o’zaro munosabatlari, ularning farovonligi hamda tarbiya jarayoni haqida alohida e’tibor berildi. Oila – bu inson hayotining asosiy poydevori, unda odamlar o’zlarining hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanag’atlantirishadi. Tadbirda oilaviy qadriyatlarni saqlash, himoya qilish va kelajak avlodga amaliy va axloqiy ma’naviyatni o’tkazish uchun zarur bo’lgan aniq takliflar muhokama qilindi. Oilada samarali aloqa, ishonch va muhabbat qurishning ahamiyati ta’kidlandi. Tadbirda ilgari surilgan takliflarni hisobga olgan holda, oilalarni qo’llab-quvvatlash, oilaviy tarbiyani kuchaytirish, va jamiyatda oilaning o’rnini oshirish uchun qo’shimcha dasturlar hamda chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Tadbirning muvaffaqiyati oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va jamiyatni yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarga bog’liq.

Har bir oila individual va uning tarixi uning a’zolarining muqaddas va unikal birligi sifatida katta qimmatga ega. Shu sababli, oilaning qadriyatlarini saqlash va ularni yanada rivojlantirish – bu majburiyatimiz. Tadbirning muvaffaqiyati oilaviy munosabatlarning mustahkamligi va jamiyatni yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarga bog’liq.



Shu sababli, oila muqaddas hisoblanadi. Uning barqarorligi, insonlarning jamiyatdagi o’rnini belgilaydi. Biz oilaviy qadriyatlarni, ko’p yillik an’analarimizni va madaniyatimizni asrab, harakat qilishimiz zarur. Oila – bu biz uchun hayotimizning ma’nosi, baxt va tarbiya manbai, shunday ekan, uni asrash, qadrlash va rivojlantirish har birimizga chora ishlar qilishni talab qiladi. Hulosa o’rnida shuni aytish kerakki barchamizga bugungi ayyom muborak bo’lsin va

har birimizga Oilamizni ko'rg'on kabi saqlash va undagi munosabatlarni mustahkamlash barchamizga nasib etsin deya tadbirga tarmoq markazi direktori G.Ixtiyarova yakun yasadilar.

Globalashuv jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish va unga bo'lgan munosabatda immunitet xosil qilish masalalari bo'yicha respublikamizda bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bizning tarmoq markazida xam bu borada bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida **"Biz korrupsiyaga qarshimiz"** shiori ostida o'tayotgan ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Bugun biz bu yerga tasodifan yig'ilmadik. Bizni umumiy e'tiqod birlashtiradi: korrupsiya - bu ishonch, adolat va rivojlanishni buzadigan yovuzlik. Biz-tinglovchilar, fuqarolar, bo'lajak mutaxassislar-korrupsiyaning barcha ko'rinishlarida qat'iy "yo'q" deymiz. Korrupsiya jamiyat asoslarini buzadi, mehnatning halolligini shubha ostiga qo'yadi, qoidalarni buzadi va taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Biz qarindoshlik aloqalari qobiliyatdan ko'ra muhimroq bo'lgan va pora qonunni almashtiradigan dunyoda yashashni xohlamaymiz. Biz halollik, mas'uliyat va adolatni tanlaymiz. Biz namuna bo'lishga tayyormiz. Biz korrupsiya sxemalarida qatnashmaslikka va'da beramiz. Biz o'zgarishlarni xohlaymiz va biz o'zimizdan boshlaymiz. Faqat birgalikda, xabardorlik va faol pozitsiya bilan biz madaniyatni o'zgartirishimiz mumkin. Bizning har bir harakatimiz korrupsiyadan xoli jamiyat sari qadam bo'lsin deya ma'rifiy tadbirga yakun yasaldi.

Shuningdek tarmoq markazlarini nufuzini oshirish maqsadida chet el malaka oshirish markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va ular bilan loyixalar doirasida ishlarini amalga oshirish davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarni amalga oshirish yo'lida qo'shma ta'lim dasturi amalga oshirildi. Qo'shma ta'lim dasturi (angliycha: dual education system) - bu ta'limning o'zgaruvchan va amaliy usullari bilan birlashgan tizimdir. Unda talabalar teoretik bilimlarni olish bilan birga, ishlab chiqarishda amaliy tajribaga ham ega bo'ladilar. Ushbu dasturning asosiy maqsadlari:

Talabalar nazariy bilimlarni olish bilan birga, ularni amaliy holatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Oliy ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq markazi hamda Muhtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universiteti (Qozog'iston) o'rtasida kelishilgan qo'shma ta'lim dasturi asosida "Neft va gazni qayta ishlash" yo'nalishi bo'yicha tinglovchilar uchun 48 soatlik malaka oshirish kursi tashkil etildi.



Birinchisi marta tashkil qilingan ushbu o'quv mashg'uloti doirasida:

- Kimyo fanlari doktori, professor K.S. Nadirov shartnoma
- asosida 1 hafta mobaynida 36 soatlik nazariy mashg'ulotlarni Tarmoq markazida o'tkazishi belgilandi. Qolgan 12 soatlik ko'chma mashg'ulotlar esa Muhtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universitetida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur mashg'ulotlar tarmoq direktori, k.f.d., professor Ixtiyorova Gulnora Akmalovna boshchiligida, Muhtor Auezov universitetining O'quv yuklamasini rejalashtirish va shtat shakllantirish bo'limi mutaxassisi, yuqori malakali mutaxassis Bekbolatov Gabit Jahangerovich hamda Neft va gaz sanoati texnologiyasi bo'yicha ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor K.S. Nadirov rahbarligida olib borilmoqda.

2025 yilning 26-27 iyun kunlari Chimkent shahridagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universitetida 12 soatlik ko'chma mashg'ulotlar boshlab yuborildi. Darslar jarayonida tadqiqot universiteti tinglovchilar bilan hamkorlikda shunga taalluqli bo'lgan kafedrani to'la qonli o'rganishdi, ilmiy laboratoriyalar va amaliyot ob'ektlari bilan tanishishmoqdalar



Islom Karimov nomidagi TDTU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi hamda Muxtor Avezov nomidagi Janubiy-Qozog'iston tadqiqot universiteti o'rtasida kelishilgan qo'shma ta'lim dasturi asosida "Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi" yo'nalishi tinglovchilari uchun 48 soatlik malaka oshirish kursi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Kurs yakunida ishtirokchilar xalqaro darajada tan olingan qo'shma sertifikatlar (Double Certificate) bilan taqdirlandilar, bu esa ularning ilmiy va amaliy salohiyatini oshirish, xorijiy ta'lim tizimlariga integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim bosqich bo'ldi.

Mazkur hamkorlik doirasida amalga oshirilgan malaka oshirish kursi Islom Karimov nomidagi TDTU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi hamda Muxtor Avezov nomidagi Janubiy-Qozog'iston tadqiqot universiteti o'rtasidagi ilmiy-ta'limiy aloqalarning mustahkamlanishiga, hamda kelgusida qo'shma loyihalar, tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ-158-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 28-son, 260-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 5 martdagi "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi PQ-2142-son Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 10-son, 103-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019 y., 06/19/5729/3199-son, 20.07.2019 y., 06/19/5769/3450-son).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021 y., 06/21/6257/0645-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021 y., 07/21/5177/0644-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/pdfs/4875784;z>